

**YOSH AVLODNI INTELLEKTUAL VA IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT TA'LIM SIYOSATI**

**Pirmanova Gavhar Nazarkulovna**

*Navoiy davlat pedagogika institute*

*Pedagogika fanlari bo'yicha*

*falsafa doktori(PhD) dotsent*

**Haydarova Nozigul Bahrom qizi**

*Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi*

*ingliz tili fani o'qituvchisi*

*Telefon: +998913332818*

[Haydarova.nozigul@mail.ru](mailto:Haydarova.nozigul@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yosh avlodning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va bu jarayonni samarali tashkil etish bo'yicha davlat ta'lim siyosati haqida qisqacha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** fikr, ta'lim, intellektual, siyosat, ijodiy, mustaqil, erkin, tarqqiyot, yosh avlod, dunyoqarash.

Yosh avlodni intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirib borish, ularda fikr erkinligini tarbiyalash - kuchli jamiyat, kuchli davlat poydevori qurilishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biz bilamizki, insonning fikrlash qobiliyati, tafakkur doirasi qanchalik keng va mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor, izlanuvchan, yangiliklarni qabul qilishga hamda yangi g'oyalarni yaratishga qobiliyatli bo'ladi. Shuning uchun ham yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikr yuritishga, erkin ijodiy fikrlashga o'rgatish davlat juda muhim masalaga aylanib, yuksak ma'naviy fazilatlarga, ijodiy fikrlash qobiliyati va o'zining mustaqil yondashuviga ega bo'lgan, erkin, sog'lom e'tiqodli shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilmoqda.

Garchi, jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to'plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Shu boisdan ham istiqlolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish ishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bundan tashqari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" kabi hujjatlar asosida yangilangan milliy ta'lim tizimi mustaqil fikrlaydigan, o'z qarashiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviy fazilatlarni

qaror toptirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. O'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularni imkon qadar ko'proq ijodiy fikr yuritish masalasi ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylandi. Chunki ijodiy fikrlay oladigan, mustaqil mushohada yurituvchi, intellektual qobiliyatga ega avlodgina chinakkam ma'noda kuchli jamiyat yaratishga qodir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi farmoni asosida qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlangan alohida bandeda aks ettirilgandan keyin, 2017 yilda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan dastur asosida bugungi kunda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab -quvvatlash, ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

2023 yil 17 may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini takomillashtirishga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlar bilan doimiy muloqot qilish, ularning intellektual, ijodiy, ma'naviy va jismoniy qobiliyatini ro'yobga chiqarish, umuman, yoshlar masalasiga davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Xususan, o'tgan davr mobaynida yoshlarni qo'llab-quvvatlashga oid Prezidentimizning ko'plab Farmon va qarorlari qabul qilindi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, ijodkor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash maqsadida barcha sharoitlarni yaratishga qaratilgan yagona tizim yaratildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda 30 iyun — "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Turli sohalarda yuksak muvaffaqiyat va yutuqlarga erishayotgan yoshlarimizni rag'batlantirib borish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. Shuningdek, yurtimizda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar, yoshlar

siyosatiga oid fundamental ahamiyatga ega — “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunni zamon talabidan kelib chiqib, takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yosh avlodni ta‘lim – tarbiya jarayonida qo‘llab-quvvatlash hamda Ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmoni imzoladi.

Ushbu farmonga asosan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan, intellektual va ijodiy qobiliyatga ega kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Umuman olganda globallashtirish davrida ta‘lim-tarbiya jarayoni zamon talablariga javob berishi, undan orqada kolmasligi muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim sohasidagi yutuqlar taraqqiyotning kaliti bo‘lsa, tarbiya sohasidagi o‘ziga xoslik O‘zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishini kafolatlab beradi. Bunday taraqqiyot yo‘lini rivojlantirish uchun albatta intellektual va ijodiy qobiliyatga ega yosh avlod muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi farmoni
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi
3. Z.T. Nishonova. Mustaqil ijodiy fikrlash. -t.:Fan. -2003. -114b